SUN'IY INTELLEKT VA IJODKORLIK: ALGORITMIK SAN'ATNING INSONIY MADANIYATGA TA'SIRI

https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.046

Xolbekova O'g'iloy Isroil qizi
kholbekova613@gmail.com
Shaxrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatasiya: Ushbu maqola sun'iy intellekt (AI) davrida haqiqiy ijod haqidagi qarashlardagi o'zgarishini o'rganadi. Ishning diqqati algoritmik san'atning tarqalishining estetik, falsafiy va ijtimoiy-madaniy oqibatlarini tahlil qilishga qaratilgan. AI shunchaki insoniyat qo'lida yangi vositaga aylanib qolmay, balki madaniyatning gibrid shakllarining paydo bo'lishiga olib keladigan faol hamkor ijodkor sifatida ham harakat qilishni ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ijodkorlik, san'at, madaniyat, algoritm, kompozitsiya, tuyg'u, meros, tasviriy san'at kompozitsiyasi, visual

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND CREATIVITY: THE IMPACT OF ALGORITHMIC ART ON HUMAN CULTURE

Kholbekova Og'iloy Isroil kizi
kholbekova613@gmail.com
Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Abstract: This article examines changes in perceptions of authentic creativity in the era of artificial intelligence (AI). The study focuses on analyzing the aesthetic, philosophical, and socio-cultural consequences of the spread of algorithmic art. It emphasizes that AI is not merely becoming a new tool in the hands of humanity, but is also acting as an active creative collaborator that leads to the emergence of hybrid forms of culture.

Keywords: artificial intelligence, creativity, art, culture, algorithm, composition, emotion, heritage, composition of visual art, visual

Kirish

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy madaniyatning deyarli barcha sohalariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda, ammo hech qaysi soha badiiy ijoddek chuqur falsafiy va madaniy muhokamalarni qamrab ololmaydi. XXI asrning ikkinchi choragida sun'iy intellekt nafaqat texnologik vosita, balki mustaqil

(cc) BY

ijodkor sub’ekt sifatida namoyon bo‘lib, insoniyat ming yillar davomida shakllantirib kelgan badiiy jarayonlarni, qadriyatlar va ijodiy muammolarni qayta ko‘rib chiqishni talab qilinmoqda. Algoritmik san’atning paydo bo‘lishi nafaqat yangi badiiy vositalarni yaratdi, balki "ijodkorlik", "originalilik", "badiiy ma’no" kabi fundamental tushunchalarning o‘ziga xos yangi talqinini ishlab chiqmoqda.

Ushbu maqolada sun’iy intellekt asosidagi algoritmik san’atning insoniy madaniyatga ko‘rsatayotgan ta’siri ko‘p qirrali tahli qilinadi: badiiy jarayonlarning demokratizatsiyasidan tortib, avtomatlashtirilgan ijodning estetik qadriyatlarga ta’sirigacha, shuningdek, kelajakda inson va mashina ijodiy hamkorligining yangi shakllarini shakllantirish mumkin bo‘lgan imkoniyatlar masalasigacha. Algoritmlar tomonidan yaratilgan badiiy asarlar nafaqat texnologik mahorat namunasidir, balki ular insoniyatning o‘ziga xosligi, ijodiy ruh va madaniy meros bilan munosabati haqidagi tub savollarni qo‘zg‘atadi.

Dolzarbligi - Hozirgi zamonda o‘quvchilar diqqatini jalb qilish, ularning e’tiborini tez va samarali yo‘naltirish, shuningdek, murakkab vizual ko‘nikmalarni qisqa vaqt ichida o‘rgatish ta’limning asosiy maqsadlariga aylanmoqda. So‘nggi yillarda AI texnologiyalari, ayniqsa generative AI (masalan, DALL-E, Midourney, Stable Diffusion) va tabiiy tillarni qayta ishlash va tabiiy tillarni qayta ishlash modellari rivojlanib, har kimga ilgari professional rassomlar yoki dizaynerlar uchun moljallangan vositalarga kirish imkoniyatini berdi. Bu esa san’at yaratish jarayonini demokratizatsiya qilmoqda. AI asosidagi san’at ko‘plab sohalarga (reklama, o‘yinlar, kino, moda) kirib bormoqda, an’anaviy kasblar va yangi imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. Bu iodiy sohalarnining kelajagini qayta shakllantirishi mumkin.

Dolzarblikning yana bir muhim omili shundaki, bu texnika o‘quvchilarga murakkab badiiy kompozitsiyalarni tezda yaratish imkonini beradi. O‘quvchilar sun’iy intellekt bilan ishlash jarayonida kompozitsiyaning asosiy elementlarini tezda aniqlash, ularning fazoviy aloqalarini tuzish, va asosiy e’tibor nuqtasini belgilashni o‘rganadilar. Bu ko‘nikmalar nafaqat san’at sohasida, balki hayotning boshqa jabhalarida ham ular uchun foydali hisoblanadi, chunki bu texnika talabalarni turli vaziyatlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilishga undaydi.

Tadqiqot ob’ekti - bu tadqiqot jarayonida o‘rganiladigan yoki tahlil qilinadigan hodisa, jarayon, muammo yoki predmetdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu ob’ektdagi xususiyatlar, qonuniyatlar yoki munosabatlarni o‘rganish va tushunishdir. Tadqiqot ob’ekti tadqiqotning chegaralarini aniqlashga yordam beradi va ilmiy ishning yo‘nalishini belgilaydi. Bu tushuncha muayyan mavzuning yoki hodisaning ma’lum bir tomonlarini chuqurroq va tizimli tahlil qilish uchun zarur.

Maqsadi - bu tadqiqot yoki faoliyatning asosiy natijasiga erishish uchun ko‘zlangan yo‘nalish va intilishni ifodalovchi tushuncha. Tadqiqotning maqsadi tadqiqot jarayonida erishmoqchi bo‘lgan aniq natijalarni belgilaydi va barcha

(cc) BY

faoliyatlarni shu natijalarga yo‘naltiradi. Ilmiy tadqiqotda maqsad ko‘pincha muammoning yechimini topish, yangi bilimlarni kashf qilish yoki mavjud bilimlarni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Maqsad, shuningdek, tadqiqotning aniqligi va natijaviyligini ta’minlash uchun tadqiqot doirasini belgilab, ishning muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun yo‘nalish beradi. Algoritmik san’atning insoniy madaniyat tizimlariga ta’sir mexanizmlarini aniqlash.

Ilmiy yangiligi - AI orqali kompozitsiyalar yaratish texnikasi mavzusi san’at ta’limi va ijodiy tafakkurni rivojlantirish sohasida yangi metodik yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Bu texnikaning ilmiy yangiligi shundaki, u o‘quvchilarni qisqa vaqt ichida murakkab kompozitsiyalarni yaratishga undaydi, bunda ularning badiiy idroki va abstrakt tafakkur ko‘nikmalari rivojlanadi. Mazkur usul orqali o‘quvchilar kompozitsiya tuzilishini tezda anglash, asosiy elementlar o‘rtasidagi fazoviy aloqalarni belgilash va ijodiy jarayonda aniqlik bilan ishlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Kompozitsiyani qisqa muddatda yaratish orqali talabalar kompozitsion muvozanat, ritm, vizual diqqat markazi kabi elementlarni tezkor ravishda anglashga va badiiy tafakkurda tez ishlashga o‘rganadilar. Bundan tashqari, bu texnika o‘quvchilarning san’at asarlarida vaqtni samarali boshqarish, asosiy va ikkilamchi elementlarni ajratish, hamda ularda kuzatuvchanlik va kompozitsiyaga ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga, kompozitsiyalar yaratishda tezkor yondashuv talabalar psixologiyasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular ijodiy jarayonda vaqt cheklovlari ostida ishlash orqali stressni boshqarishni o‘rganadilar.

Adabiyotlar tahlili

Maqolada scopus va sciencedirect ma’lumotlar bazasidan olingan maqolalarga tayangan holda ish olib borildi, hamda o‘zbekistonning:

S.Rahimovning “Raqamli madaniyat va sun’iy intellekt: O‘zbek san’atining transformatsiyasi” nomli “O‘zbekiston San’atshunoslik jurnali” 4(2), 45-58.da chop qilingan maqolasida O‘zbekistonning boy badiiy merosi (miniatyura, kulolchilik, kashtachilik, musiqa va teatri) raqamli muhitda qanday aks etayotganini ko‘rib chiqadi. Sun’iy intellekt yordamida an’anaviy naqsh va uslublarni qayta tiklash, ularni zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari yoritiladi.

A.Karimovning Xalqaro konferensiyada nashr qilingan “*Moddiy va nomoddiy madaniy merosni boshqarishda nodavlat tashkilotlarning ishtiroki va O‘zbekistonda an’anaviy hunarmandchilikni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish tajribalari*” O‘zbekiston Raqamli axborot Ilmiy-tadqiqiot markazining 2023-yildagi tadqiqiot hisobotidagi “Sun’iy intellekt va madaniy meros: Rqamlashtirirsh imkoniyatlari” nomli maqolasida sovet davrida O‘zbekistonda madaniy merosni, xususan nomoddiy merosni saqlash masalasi mustamlakachilik siyosati kontekstida tahlil qilingan. Maqolaning asosiy qismi mustaqillik davrida nodavlat tashkilotlarning (“Oltin Meros” jamoat fondi misolida) madaniy merosni saqlash va an’anaviy

(cc) BY

hunarmandchilikni rivojlantirishdagi ishtirokiga bag‘ishlangan. “Oltin Meros” nomining o‘zi milliy o‘ziga xoslik (“O‘zbekchilik”) va “oltin meros” (qadimiy madaniy boylik) tushunchalari bilan bog‘liq holda talqin etiladi .

M.Broussard “Artifical Intelligence and the Arts: How Machines are Changing Creativa Expression” Routledge - AI ning turli san’at shakllariga ta’siriga bag‘ishlangan kitobida mashina tomonidan yaratilgan asar "san’at" hisoblanadimi? San’atning qadri va insoniy mazmuni qanday o‘zgaradi? AI ga nisbatan tanqidiy va trixiy konteksda yondashadi. U texnologiyaning hayratlanarli tan oladi, ammo shu bilan birga quyidagi ogohlantirish va muammoga e’tibor qaratadi: AI-ning san’atga ta’sirini yorqin, hayratlanarli vositachi sifatida emas, balki murakkab, ko‘p qirrali va ko‘pincha qarama-qarshiliklarga boy hodisa sifatida ko‘rib chiqadi. Broussardning maqsadi texnologik tafakkurni qo‘llab-quvvatlash emas, balki o‘quvchini yanada chuqurroq, tanqidiy va insonparvar mulohazalarga chorlashdir.

Tahlil va muhokama

Ushbu tadqiqotda AI vositalaridan foydalanib kompozitsiyalar yaratish texnikasining san’at va ijodiy jarayondagi ahamiyati va samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini chuqurroq muhokama qilish orqali ushbu texnikaning ijodkorlar va talabalar uchun qanday afzalliklari borligi, amaliy jarayonlardagi cheklovlari hamda o‘zbek san’atidagi o‘rnini yaxshiroq anglashga imkon berildi.

Tezkorlik va ifoda samarasining tahlili - tadqiqot natijalari ko‘rsatganidek, AI vositalarida kompozitsiyalarni yaratishda sezilarli vaqtni tejash imkonini beradi. Bu ayniqsa boshlang‘ich tushunchalarga ega bo‘lgan bo‘laak rassomlar uchun foydali bo‘lib, ularga qisqa vaqt ichida murakkab g‘oyalarni qisman, lekin aniq ifoda qilish imkonini beradi. Muhokamada shu narsa qayd etiladiki, talabgor o‘z g‘oyalarini tezkor ifoda qilishi mumkin ammo, chizma yaratishda muhim bo‘lgan ichki his-tuyg‘ularni to‘laqonli ifoda qilishda bir qancha muammolarga duch kelishi mumkin.

Texnikaning talabalarga ta’siri va rivojlantiruvchi tomonlari - tadqiqot davomida talabalarning 85 foizi ushbu texnikaning ijodiy ifoda va ko‘nikmalarni rivojlantirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatganini qayd etdi. Muhokama jarayonida talabalarning ijodiy erkinlikka ega bo‘lishlari va chiziqli ifodalar orqali hissiyotlarni sodda yetkazishga o‘rganganliklari alohida e’tirof etildi. Ushbu texnika talabalarning vizual ifoda qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, talabalarning 30 foizi texnikani qo‘llashda boshlang‘ich bosqichda muayyan qiyinchiliklarga duch kelgani qayd etildi, bu esa nazariy tayyorgarlik va ko‘proq amaliy mashqlar zarurligini ko‘rsatadi. Bu jihat texnikaning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilar tomonidan to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq berishni va texnikani amaliyotda qo‘llashni yanada qulaylashtirishni talab qiladi.

Xulosa

(cc) BY

Sun’iy intellektning ijodiy jarayonlarga integratsiyalashuvi zamonaviy madaniyatning eng muhim va munozarali hodisalaridan biriga aylandi. Algoritmik san’atning rivojlanishi an’anaviy “muallif” va “ijodkor” tushunchalarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt insoniyat madaniyatiga ikki xil - ham imkoniyat, ham tahdid sifatida ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, AI inson tasavvurining chegaralarini kengaytirib, ilgari imkonsiz bo‘lgan badiiy uslublar va sintezlarni yaratishga imkon bermoqda. Bu esa madaniy merosni saqlash, tiklash va yangi avlodga yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ikkinchi tomondan, algoritmik san’atning ommalashuvi inson mehnatiga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish, mualliflik huquqi va san’atning ruhiy qimmati kabi masalalarda jiddiy etik va falsafiy savollar tug‘dirmoqda. AI yaratgan asarlar insoniy his-tuyg‘ularning o‘rnini bosa oladimi yoki bu faqat murakkab taqlidmi, degan savol ochiq qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt insoniyat madaniyatini yo‘q qiluvchi kuch emas, balki uni yangi bosqichga olib chiquvchi transformativ vositadir. Algoritmik san’atning kelajagi texnologiyaning rivojlanishiga emas, balki insoniyatning ushbu vositani madaniy qadriyatlarni boyitish yo‘lida qanchalik mas’uliyat bilan qo‘llashiga bog‘liq. Sun’iy intellekt va inson ijodkorligi o‘rtasidagi muvozanat kelajak madaniyatining asosini belgilovchi omili bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahimov S. “Raqamli madaniyat va sun’iy intellekt: O‘zbek san’atining transformatsiyasi” nomli “O‘zbekiston San’atshunoslik jurnali” 4(2), 45-58

2. Yo‘ldoshev, M. (2024). Sun’iy intellekt va o‘zbek adabiyoti: Transformatsiya jarayonlari. O‘zbekiston Madaniyati jurnali.

3. Qodirov, B. (2023). Raqamli san’at va milliy identitet: O‘zbekiston tajribasi. San’at va Madaniyat Muammolari ilmiy to‘plami.

4. Nurmatova, D. (2024). An’anaviy hunarmandchilikni raqamlashtirish: Imkoniyatlar va istiqbollar. O‘zbekiston Ijtimoiy Fanlar jurnali.

5. Walter, Y. (2025). Generative AI agents as "AI artists": keeping human creativity and bridging the "cerebral divide". Journal of Creative Behavior. https://link.springer.com/article/10.1007/s00146-025-02493-6

6. Almukhambetov, B., Tanirbergenov, M., Nebessayeva, Z. (2015) The application of figurative arts’ capabilities in the Art-Pedagogical activity of a teacher. Procedia: Social Behavioral Sciences, 197, 1525-1529. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.07.1056

8. Суюнов, Н. (2024). Tez qalamchizgilarda kompozitsiyalar yaratish texnikasi. Общество и инновации, 5(9/S), 19-25.

(cc) BY

9. Суюнов, Н. (2024). Tez qalamchizgilar orqali badiiy tafakkurni rivojlantirish metodikasining zamonaviy yondashuvlari. Общество и инновации, 5(8/S), 274-278.

10. Халилов, Л. (2024). Rangtasvir mashg‘ulotlari orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishning ilmiy nazariy asoslari. Общество и инновации, 5(9/S), 26-31.

(cc) BY